

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKUL`TETI

«TASVIRIY SAN`AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI»

KAFEDRASI

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» ta`lim yo`nalishi

4 «v»- guruh talabasi

QOSIMOVA MUBORAK SEYTIMBATOVNANING

«Kollej o`quvchilariga boshning asosiy qismlari burun, ko`z,
quloq, lab va ularning tasvirlash yo`llari» nomli mavzusida bajargan

BAKALAVR BITIRUV

MALAKAVIY IshI

Himoyaga ruxsat
Pedagogika fakul`teti
dekani, dots _____ Z.Klicheva

«Tasviriy san`at va
muhandislik grafikasi»
kafedrasi mudiri, dots.
_____ J.Darmenov

Ilmiy rahbar: _____

A.Aldabergenov

Nukus – 2015 yil

MAVZU : KOLLeJ O`QUVChILARIGA BOSHNING ASOSIY
QISMLARI BURUN, KO`Z, QULOQ, LAB VA ULARNING
TASVIRLASH YO`LLARI

REJA:

KIRISH.....3

**I BOB. QALAMTASVIR AMALIY MASHG`ULOTLARIDA
TALABALARGA IJODIY KOMPAZITSION QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

- 1.1. Amaliy mashg`ulotlarda talabalarga kompozitsion qobiliyatlarini har xil janrlarda rasm chizishning metodik asoslari8
- 1.2. Pedagogik rasm chizishning metodik bosqichlari.....3

**II BOB. TALABALARGA QALAMTASVIR MASHG`ULOTLARIDA,
ASOSAN AMALIY DARSLARDA PEDAGOGIK RASM CHIZISHNI
O`RGATIB BORISH YO`LLARI**

- 2.1. Oddiydan murakkabga o`tish printsipligiga asoslangan holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o`rgatib borish yo`llari.....18
- 2.2. Pedagogik rasm chizishning I. II. III.IV metodik bosqichlarini o`rgatish.....37

XULOSA.....47

ADABIYOTLAR.....52

KIRISH

Xalqimiz ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriyl san'atning o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriyl san'atda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatorga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining roli beqiyosdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak»¹. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Tasviriyl san'at mashg'ulotlari Badiiy grafika fakul'teti talabalarining pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, bo'lajak rassom o'qituvchi tasviriyl san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo'llarini mukammal egallashi kerak. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilar rasm ishlash malakalariga ega bo'lish bilan birga, shu sohadagi nazariyl hamda amaliyl bilimlarini o'quvchilarga etkaza olishi zarur.

Ayniqsa mamlakatimiz mustaqillikni mahkamlash yo'lida takomillashayotgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida xalq ma'rifati sohasida ijodiy, estetik madaniyatli yosh mutaxassislarning etishib chiqishi va ishga kirishib, yuksak malakalarga ega bo'lishi juda muhim [2; 9].

Ushbu muammolarni amalga oshirishda tasviriy san`at mutaxassislariga o`rta maxsus va yuqori ta`lim berish o`qish o`rinlarining tasviriy san`at mashg`ulotlarini olib boruvchi o`qituvchilarning faoliyati katta rol` o`ynaydi, ularga katta ma`suliyatli vazifalar quyiladi.

Ta`lim berish haqidagi qonunda badiiy tarbiyani har tomonlama rivojlantirishga alohida e`tibor berilgan. Go`zallikni sevuvchi har bir inson san`at turlarining barchasini, ular orasida tasviriy san`atga alohida e`tibor qaratmasdan, san`at xaqida qandaydir baho berishi yoki lazzatlanishi mumkin emas. Chunki, tasviriy san`atisiz madaniyatning hech bir turini tasavvur qilishning o`zi qiyin narsa. Tasviriy san`at alohida bir olam. Insoniyat azaldan go`zallikka intilib kelgan, go`zallik esa insoniyatning barkamol va hurfikr bo`lishigap etaklaydi. Bu o`rinda san`atning o`rni qanchalar keng qamrovli ekanini so`z bilan ta`riflab bo`lmaydi. San`atning yuzaga kelishi insonning borliq to`g`risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o`z avlodi tajribalaridan bahramand bo`lishiga olib keladi. San`at xalqning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. estetik jihatdan o`sisht faqat san`atnigina idrok etish lozim bo`lmay, balki umumiy madaniyatining, turmush madaniyati, his-tuyg`ular madaniyati uchun ham juda zarur bo`lgan hodisadir.

Tasviriy san`at borliqni badiiy obrazlar orqali o`zidan aks ettiradi. Tasviriy san`at insonning ongiga ta`sir etib, unda ezgu his-tuyg`ularni uyg`otadi. U kishini ruhlantirib, ma`naviy olamini boyitadigan san`at turlaridan biridir.

O`z xalqining milliy san`atining tarixi va xususiyatlarini bilish, o`zining turmush va tabiat bilan bog`liq holidagi an`analarini bilish, yoshlarda milliy g`urur xissini tarbiyalaydi. Tasviriy san`at asarlarini rassomlar turli janrlarda yaratmoqdalar. Biz tasviriy san`atning ko`rgazma zallarida asarlarni ko`zdan kechirar ekanmiz, har bir davrning o`ziga xos rassomlari, ular yaratgan asarlari ko`z o`ngimizda namoyon bo`ladi va kishni e`tiborini o`ziga jalb etadi.

Uzluksiz talim berish sistemasining davlat standartlariga o'tish, o'qish va tarbiya ishlari ning metodlarini, usullarini, ayniqsa maktab va kasb-hunar o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash usul va formalarini, shuningdek, ularning mazmunini yangilash zarurligini talab qiladi. bu esa, o'z navbatida o'quvchilarda fikrlash erkinligining hissini bildirishda, shuningdek, o'zlarining ichki tuyg'ulari dunyosining rivojlanishi zarurligidan kelib chiqadi. Ushbu qo'yilgan vazifalarning bajarilishining inobatli bo'lishidav o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish turlaridan, pedagogik jarayonni boshqarish bo'yicha tanlab olingan usullarning to'g'riligidan, ularning har birining o'zgachaligi va alohida qobiliyatlarini rivojlantirish shakllarini ta'minlashdan iborat.

So'nggi yillarda, ayniqsa O'zbekiston o'z mustaqilligini ta'minlashidan beri tasviriy san'at mashg'ulotlarini olib borish ishlarigayam bir qator yangiliklar kiritilmoqda. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar maxsus bilim, tajriba va malakalarni egallay olishadi, haqqoniylikni va tasviriy san'at asarlarida estetik jihatdan tushunchalar berishga erishadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, ko'rganlarini, o'rganganlarini yodda saqlanishi, ijodiy tushunchalarini, baliy did, estetik his-tuyg'ularini orttiradi. Tasviriy san'at bo'yicha mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatining o'sishi, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, insonni har tomonlama takomillashtiradi va fikr doirasini kengaytirib, hayotni va borliqni bilish tushunchalarini rivojlantiradi, go'zallikka intiluvchan kayfiyat beradi.

Hozirgi kunda zamonaviy tasviriy san'at ta'lim berish predmetining maxsus vazifalari qatorida :

- badiiy madaniyat ko'rinishlari va ularning ijtimoiy turmushimizdagi rolini tushunishini rivojlantirish ;

- o`quvchilarda tasviriy san`at va badiiy adabiyot asarlariga tegishli emotsional fikr yuritishda, tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini va uni sevishini tarbiyalash ;

- doimiy va maqsadga muvofiq ravishda ko`rib fikr yurgazishini, ranglar va hajmlarini sezishni, kompozitsiya madaniyati, fazoviy fikrlash, fantaziyani, ko`rish orqali fikrlash va kombinatsiya qilish ijodiy vazifalarni konkret obrazlarda echa bilishini rivojlantirish kabi vazifalarini ko`rish mumkin.

Ushbu vazifalarni loyiq amalga oshirishda tasviriy san`atning jamiyatimiz turmushidagi olib boradigan funktsiyalarining ilmiy asoslari yuksak natijalar beradi. Chunki XVIII asrda yashab o`tgan ulug` frantsuz entsiklopedist va olimi Deni Didro shunday yozgan edi : «Qay bir davlatda rasm chizishga o`rgatish, yozishni va o`qishni o`rgatgandek rivojlanasa, o`sha davlatning kelajakdagi turmush tarzining o`sishi ham shunday kuch bilan rivojlanadi».

Mavzuning dolzarbliqi: Bakalavr bitiruv malakaviy ishi «Kollej o`quvchilariga boshning asosiy qismlari burun, ko`z, quloq, lab va ularning tasvirlash yo`llari» mavzusi bo`yicha bajarilgan. Kasb-xunar kollejlarida qalamtasvir fanida o`quvchilarga barqaror qiziqish uyg`otadi.

Ishning maqsad va vazifalari:

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish kishilar uchun eng zarur xususiyatlardan hisoblangan xotirani o`stiradi. Tasviriy san`at o`quv programmasida o`quvchilarda bunday xususiyatlarni o`stirishga qaratilgan vazifalarga e`tibor qaratilgan.

Narsaga qarab rasm chizish tasviriy san`at o`quv kursidagi asosiy u`rinlardan birini egallaydi. Narsaning o`ziga qarab rasm chizish mashg`ulotlarida o`quvchilar borliqdagi narsalarning shakli, tuzilishi, rangi va boshqa shu kabi xususiyatlarini, ularning bir-biridan farqi va u`xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o`rganadilar.

Tadqiqot obekti va predmeti:

Tadqiqot obekti Nukus shaharidagi kasb-hunar kolleji o`quvchilari
Predmeti- kasb-hunar kolleji o`quvchilarining qalamtasvir, tasviriy san`at fanlari

Tadqiqot uslubi va uslublari:

Test, kuzatish, swrovnoma, anketa va har xil metodikalardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jixatdan yangilik darajasi: Bakalavr bitiruv malakaviy ishi referativ, metodik va amaliy xarakterga ega. O`quvchilar bilan ishlashda O`zbekiston va Qoraqalpog`iston rassomlarining ish namunalaridan foydalanish.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiki:

Bakalavr bitiruv malakaviy ishida jamlangan ma`lumotlar nafaqat nazariy bilimlar, balki tajriba ishlarida ham kasb-hunar kollejlarda, yuqori o`quv o`rinlarida, maktab va tasviriy san`at to`garaklarida olib borilayotgan darslarda o`quvchilar va o`qituvchilar, shuningdek barcha tasviriy san`atga qiziquvchilar uchun o`quv-tajriba qo`llanma sifatida foydalansa bo`ladi.

Ish tuzilishi va tarkibi:

Bakalavr bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va rangli illyustratsiyalardan tashkil topgan.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Biz o`z ishimiz davomida ishimizning maqsadi va vazifalari, shuningdek uning amaliy zarurligini ko`rsatishga harakat qildik va qalamtasvir, tasviriy san`at fanlaridan manzara ishlash bolalarning tasviriy san`atga bo`lgan qiziqishini oshirish, san`atni sevishtirishga o`rgatishda bu ishimiz yaxshi natija berganligiga erishdik.


Xulosa va takliflarning qisqasha umumlashtirilgan ifodasi: Kasb-hunar kolleji o`quvchilarning tasviriy san`atga, rangtasvirga, qalamtasvirga bo`lgan munosabatini yaxshilash, mehr uyg`otish, amaliy san`at an`analarini rivojlantirishga o`rgatish, pedagogning asosiy vazifasi bo`lib hisoblanadi.

I. BOB. QALAMTASVIR AMALIY MASHG'ULOTLARIDA
TALABALARGA IJODIY KOMPAZITSION QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarqa kompozitsion qobiliyatlarini har xil
janrlarda rasm chizishning metodik asoslari

Narsaga qarab rasm chizish tasviriy san'at o'quv kursidagi asosiy u'rinlardan birini egallaydi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida o'quvchilar borliqdagi narsalarning shakli, tuzilishi, rangi va boshqa shu kabi xususiyatlarini, ularning bir-biridan farqi va u'xshash tomonlarini solishtirish orqali aniqlashni o'rganadilar. Shuningdek, narsalarning qaysi geometrik shaklga xos ekanligini aniqlagan holda ularni perspektiv jihatdan tasvirlash yuzasidan bilim va malakalar hosil qiladilar. Naturaning yorug'lik manbaiga nisbatan joylashuvchini hisobga olgan holda ularning yorug', soya, yarim soya, refleksi, bliklarini tasvirlashni o'rganadilar. Eng muhimi, narsalarni kuzatish orqali qalam bilan ularning rasmini ishlash malakalarini hosil qiladilar va o'stiradilar.

Rasm 1.



Qalamtasvirda gips rozetkasi ishlashning bosqichlari

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida har xil predmetlar rasmlarini chizish bilan birga, o'simliklar, gullar, daraxtlar, qush va xayvonlar rasmlari ham chizdiriladi. Chizishda avval ularni tahlil qilish va o'rganish o'quvchilardagi eng yaxshi sifat – borliqni bilishga xizmat qiladi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. O'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish ularning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida o'quvchilarda aqliy faoliyatning xos xususiyatlarini belgilash, narsalarning tuzilishini bilish bilan bog'liq. Dars jarayonida narsalar haqida tushunchalar hosil qilish, fikr yuritish, ular haqida o'ylab ko'rish, solishtirish, ushlab ko'rish, xulosalar qilish o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish kishilar uchun eng zarur xususiyalardan hisoblangan xotirani o'stiradi. Tasviriy san'at o'quv programmasida o'quvchilarda bunday xususiyatlarni o'stirishga qaratilgan vazifalarga e'tibor qaratilgan [6; 34-35].

Narsaga qarab rasm chizish mashg'ulotlarida chiziladigan narsalar o'quvchilar saviyasiga mos bo'lishi bilan birga, utslarda qiziqish orttirishi juda muhim. Shuningdek, narsaga qarab rasm chizishda o'quvchilarda fazoviy tasavvur va tafakkur o'stiriladi. O'quvchilarda bu xususiyatlarni rivojlantirishda, ayniqsa, hajmli predmetlarning perspektiv jihatdan rasmini chizdirishning roli katta. Uch o'lchovli narsalarni (bo'yi, eni, qalinligi) tekislikda ikki o'lchovda tasvirlash ham o'quvchilarda shunday xususiyatlarni o'stirishga yordam beradi. Chiziladigan narsalar shaklining konstruktiv tuzilishini tahlil qilish abstrakt tafakkurni o'stirish bilan bog'liq. Katta qiziqish e'tibor va ishtiyoq bilan o'qib o'rganish, ishlash jarayonida ular goho shunday malakaga ega bo'ladilarki, ba'zan mahoratli rassomlardan xam qolishmaydilar. Bunday qiziquvchilar maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olar ekanlar. Haqiqiy rassomga kerak bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashga xarakat qiladilar. Muzeylarda, ko'rgazma zallarida bo'lishi, tasviriy

san`atning durdona asarlari bilan yaqindan tanishish, rassomchilik mashg`ulotlariga qiziqib qatnashish, mutaxassis-ustoz ijodkorlarning maslahatlaridan bahramand bo`lish katta ahamiyatga egav. Qalamtasvirda rasm chizish ba`zilar o`ylaganchilik oson ish emas. Buning uchun talaba ko`p narsani o`rganishni, bilishi, ma`lum malakaga ega bo`lishi, zehnini o`stirishi, qo`lini o`rgatishi zarur. Qog`oz sathida buyum va ko`rinishlarni haqqoniy tarzda hajmli qilib tasvirlay olish uchun sabat bilan juda ko`p mashq qilish kerak. Rasm chizishda tasvirlanayotgan narsalarning orasidagi masofa, yo`nalishi hajmda chiziqlarning barchasi ko`z bilan chamalab chizilishi, tsirkul`, chizg`ich va boshqa yordamchi moslamalar ishlatilmasligi kerak. Ana shunda chamalab chizishga ko`nikma hosil bo`lib boradi.

Rasm 2.



Rangtasvirda natyurmort ishlash bosqichlari

Buyumlarni tasvirlash boshqa aniq fanlar kabi fikrlab, chizilayotgan narsani chuqur tahlil etib, uni ko`z orqali emas, turli tasvirlash vositalari bilan, obrazli qilib yaratishni taqozo etadi.

«Tasvirlash fikrlash demakdir» - degan edi P.P.Chistyakov. U o`quvchilarga «Hech qachon indamay rasm chizish kerak emas, har doim oldingizga maqsad qo`ygan holda gapirib tasvirlang, bu erdan u ergacha»-

deb doimo ta'kidlab edi. So'z – tasvirlanayotgan buyumni tahlil qilib to'g'ri bajarishda eng asosiy vositalardan biridir. U chizuvchilarda fikr yuritib tasvirlag «odati» ni shakllantiradi.

Ma'lumki, tasviriy san'at ijtimoiy ongning bir shakli sifatida atrof muhitni keng va atroflicha o'rganish natijasida, aniq fikrlab kabi, tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali rivojlantiradi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at, o'qituvchini tabiatni qanchalik ko'p sevsa va kuzatib o'rgansa, u shunchalik tasvirlash sohasida yuksak natijalarga erishishi mumkin [6; 36-37].

Bu borada atab o'tish kerakki, Uyg'onish davrining rassomlari tabiatni ilmiy tahlil qilib, uni asosli o'rganganlar va o'z asarlarida ishonarli tasvirlaganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Al'brext Dyurerlar inson tanasi a'zolarining har bir bo'lagini matematik jihatdan aniq o'lchamlarda o'rganib o'z tasvirlarida amaliy qo'llanganlar. Inson qomati yoki portretini tasvirlashdan oldin uning tuzilishi xususiyatlari xudi anatom-tadqiqotchidek asosli o'rganganlar va o'zlarining butun jahonga mashhur san'at asarlarini yaratganlar.

Rasm 3.



Gipsdan ishlangan ayol boshining qalamtasviri

O`quv kalamtasvirining ilmiy asoslari talabaning u yoki bu o`quv mashaq jarayonida tasvirlashning qonun va qoidalarini aniq bajaradilar. Masalan, boshlang`ich kurslarda gipsli geometrik shakllarni chizishda talabadan ushbu buyumlarni chiziqli konstruktiv tuzilishi hamda perspektiva qonun-qoidalariga amal qilishini talab qilinadi. Inson holatini tasvirlashda esa (yuqori kurslarda) talabalar uning anatomik tuzilishini o`rganishlari shart. Yuqori kurs talabalarida har birining o`ziga xos individual tasvirlash texnik xususiyatlarini rivojlana boshlaydi. Ular har bir vazifani o`ziga xos texnik jihatdan amalga oshirish bilan birga qalamtasvirdagi mavjud anatomiya qonunlariga rioya qilishlari lozim (suyak va mashaklarning joylashishi, birlashishi, ularning nisbat va tuzilishlari, yorug`, soya va boshqalar).

1.2. Pedagogik rasm chizishning metodik bosqichlari

Qadimgi Yunon musavvirlari inson qomatini tasvirlash natijasida, xamda uni ilmiy tahlil etib shunday xulosaga kelganlar- inson qomati tabiatning eng murakkab va oliy mahsulidir. Tana bo`laklarining bir-biriga nisbatlari matematik jihatdan aniq simmetrik (qo`l, oyoq va boshqa a`zolar) bo`lib tasvirlash davomida rassomlar o`zlarini har tomonlama etetik tarbiyalaganlar.

Bir qarashda bir-biri bilan qarama-karshi bo`lib tuyulgan tasviriy san`at va ilm-fan amaliyotida biri ikkinchisini to`ldirib shakllantiradi. Ong va sezgi idrok va hissiyot doimo yaqin aloqadadir.

Demak, talaba o`quv vazifasini to`g`ri bajarish uchun birinchi navbatda tasviriy san`atda qo`llanilishi lozim bo`lgan turli qonun va qoidalarga amal qilish kerak. Ushbu qonun-qoidalar orqali u o`quv qalamtasviri bajarishdagi birinchi darajali buyumlarni bo`rttirib ko`rsatishi, boshqa shaklning xarakterli xususiyatlarini aniq tasvirlash va ikkinchi darajali buyumlarni esa, umumiy oddiy ko`zga uncha tashlanmaydigan qilib bajarishi lozim.

Tasviriy san`at sohasidagi, xususan o`quv qalamtasvirida qo`llaniladigan qonun va qoidalar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Ushbu qonunlar tasviriy san`atga etarli ta`sir etib uning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tasvirlash qonunlari talabada qalamtasvir ishlash bilim va malakalarini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini o`stirish va uni bo`lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi [7; 25-27].

Buyumlarni o`ziga karab tasvirlash mashqlari badiiy –grafika fakul`tetlarida asosiy hisoblanib, u talabadan yuqorida bayon etilgan qonun va qoidalar asosida ish yuritishni talab etadi. Shu bois, talaba o`qishning dastlabki bosqichlaridanoq rasm chizishning asosiy qonunlari bilan to`la qurollangan, hamda o`tmishdap yashab ijod qilgan buyuk rassomlarning ijodini va tasvir ishlash texnikalarini chuqur o`rganishi lozim.

Rasm 4.




Rangtasvirda ayolning portretini ishlash bosqichlari

Tasviriy san`at, borliqdagi voqea va ho`disalar xamda buyumlarning nafaqat tashqi shaklini bajarishni, balki ushbu narsa va buyumlarni ichki dunyosini, tabiatdagi hodisalarni chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Buyumlarni konstruktiv tuzlishlarini hamda ularning turli vaziyatlardagi perspektiv qisqarishlarini to`g`ri tasvirlash talabalardan tinmay amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Jumladan XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan rus pedagoglaridan A.P.Sapodnikov buyumlarni tasvirlashda «Sinch» (karkas) usulini joriy etdi. Gipsdan ishlangan geometrik shakllarni tasvirlashda, u ma`lum shaklning yoniga shu shaklning simdan ishlangan nusxasini ko`yib yosh rassomlarga chiziqli konstruktiv tuzilishi, perspektiva qonun-qoidalarini osonlikcha o`rganishlarida yordam bergan. Sinch usuli yordamida tasvirlash turli geometrik hamda boshqa shakllarni (kub, tsilindr, konus, prizma va boshqalar) buyum tekisligidagi tayanch nuqtalarini, perspektiva asoslarini hamda fazoviy holatlarini aniqlashda katta yordam beradi [7; 28-30].

Ma'lumki, boshlang'ich kursdagi talabalar gipsdan ishlangan turli geometrik shakllarni o'ziga qarab tasvirlash vazifalari ko'rsatilgan. Bunda ular kub, shar, prizma, konus, tsilindr, piramida, gipsli ko'za, turli shaqshlar va me'morchilik bo'laklari va hokazolarni o'ziga qarab tasvirleydilar. Ushbu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi, talabalardla kompozitsiya, chiziqli konstruktiv tuzilish, nisbatlar, perspektiva asoslari kabi ko'pgina malakalarni o'rgatish hamda shakllantirishdan iboratdir. Aksariyat umumta'lim maktablaridan talabalikka qabul qilingan yoshlar ushbu vazifalarni osongina ishlash u yoki bu vazifani bajarishda unga qo'yiladigan talablarni tushungandek bo'lishadi, ammo etarli malaka va ko'nikmalarning, hamda ushbu vazifani ishlashda asos hisoblangan qonun qoidalarni bilmasliklari oqibatida ancha qiyinchiliklarga uchraydilar.

Rasm 5.



Geometrik shakllardan tuzilgan narsalarning qalamtasviri

Qalamtasvir – barcha tasviriyy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriyy san'at turining qaysi birida ijod qilishdan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizg'ilar bilan ifodalaydi.

San`at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizg`ilar rassomga yordamchi manba bo`lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san`at asari ranglar jilosi orqali tomosha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o`z asarini, etuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir boshqa san`at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san`at asari ham bo`lishi mumkin.


Tush`, sangina, pastel`, sous, qalam bilan bajarilgan ko`plab kartinalar jahonning turli san`at muzeyi va ko`rgazmalaridan joy olganligi ma`lum.

Qalamtasvir mashg`ulotlari ko`rib-kuzatib tasvirlash, borliqni idrok etish, qo`l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda nafaqat bo`lajak rassomga, balki, turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyg`onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida jumladan, shunday degan edi : «Yoshlar, ilm-fan, tasviriy san`atda sinamoqchi bo`lsalar, avvalo rasm chizish mukammal bilmoqlari lozimdir».

Qalamtasvir mashg`ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo`lajak o`qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talabalarga nazariy va amaliy mashg`ulotlar olib boriladi. Shuni ta`kidlash kerakki, amaliy mashg`ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo`lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik iodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir.

Rasm 6.



Qoralamalar chiziqlar yordamida rasm ishlash yollari

II BOB. TALABALARGA QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA,
ASOSAN AMALIY DARSLARDA PEDAGOGIK RASM CHIZISHNI
O'RGATIB BORISH YO'LLARI

2.1. Oddiydan murakkabga o'tish printsiptiga asoslangan holda
talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rgatib borish yo'llari

Badiiy ma'lumot berishda borliqni haqqoniy tasvirlash talabalarga amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga egadir. Haqqoniy rasm chizish san'ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Rasm chizishni o'rganish talabalarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash printsiptida qurilgandir.

Tabiatga muhabbat o'ta kuzatuvchanlik, buyumlarni to'g'ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san'at bilan shug'ullanadigan kishilarga xos bo'lmog'i kerak.

Tasviriy san'at o'qituvchining etuk malakaga ega bo'lishida nafaqat amaliy bilimlarni o'zlashtirilgan bo'lishi, balki tasvirlash san'atining nazariy tayyorgarligining puxtaliliga ham bog'liq.

Bo'lg'usi pedagog-rassomlarga buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan kishilar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg`ulotlari Badiiy-grafika fakul`tetidagi mutaxassis o`kuv fanlarining asosi sifatida bo`lajak tasviriy san`at o`qituvchilariga quyidagi asosiy qonunlarni o`rgatishni maqsad qilib qo`yadi :

1. Kompozitsiya asoslari.
2. Chiziqli konstruktiv tuzilishi .
3. Buyumlarning nisbatlari.
4. Perspektiva qonunlari .
5. Harakat.
6. Bajarilayotgan tasvirdagi yorug` va soyalarning qonuniyatlari.
6. Tasvirni metodik izma-izlikda to`g`ri bajarish .

Bu ko`nikma va malakalar talabaning oliy va o`rta o`kuv yurtida bilim olid davomida o`quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Ushbu bilimlar bo`lajak o`qituvchi-rassomning oliygohni tugatgandan so`ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham katta ahamiyatga ega.


Qalamtasvirda etuk asarlarni yaratish rassomdan katta kuzatuvchanlik, narsaning o`ziga qarab rasm ishlash malakalarini, shu yuzada qo`llaniladigan qonun va qoidalarga rioya qilgan holda, albatta qalam bilan ishlashdagi mahorat va tajribani talab qiladi. Bularning barchasiga etishish uchun qiziquvchanlik, nazariy bilim va tajribani orttirish uchun esa uzluksiz mashqlar qilib borish kerak. Faqat shundagina etarli mahorat va bilimga ega bo`lishi mumkin [6; 36-38].

Rasm chizish asoslarini o`rganish, narsaning o`ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash printsipida qurilgan. Tasviriy san`at o`qituvchining etuk malakaga ega bo`lishiga nafaqat amaliy bilimlarni o`zlashtirgan bo`lishi, balki tasvirlash san`atining nazariy tayyorgarliginining puxtaliliga bog`liqdir ham.

Mazkur mavzuga bag`ishlangan ilmiy-nazariy nuqtai nazarda olib borilgan ishlarga ko`ra qalamtasvir bilan shug`ullanish o`zining nazariyasiga

tayangan holda amaliy dasturlarini, shuningdek rasm ishlash qoidalarining ishlab chiqilishini amalga oshira olgan.

Rasm 7.



Oddiydan murakkabga o'tish printsipligiga asoslanib qalamtasvirda ishlash yollari

Alohida ta'kidlab o'tilishi kerak narsa bu, qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar tasviriy san'atning rivojlangan eng yirik cho'qqisi, uni ilmiy asoslangan, mukammal ishlab chiqilgan metodlarida hamda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatining uyg'unlashgan davrida o'z aksini topgan.

Pedagogika universitetlari va institutlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda qalamtasvir asosiy fan .

Qalamtasvirga oid nazariy bilimlar esa bo'lajak o'qituvchi-rassom uchun nihoyatda zarur. Qalamtasvir chizish qonun-qoidalari, undagi iboralar, har xil ashyolar bilan ishlash texnologiyasi, inson va hayvonlarning plastik anatomiyasi, yorug' va soyalar, ularning buyum va narsalardagi ko'rinishlari : daraxt va shox-shabballarning tuzilish xususiyatlari kabilarni o'qituvchi mutaxassis o'quvchiga metodik bosqichlardan foydalangan holda to'g'ri tasvirlashni o'rgatishi va ilmiy jihatdan atroflicha tushuntira olishi kerak.


Keyingi vaqtda tasviriy va amaliy san`atni rivojlantirishga hukumatimiz katta e`tibor bermoqda. Unga esa qalamtasvir mashg`ulotlari yuksak darajada olib borilgandagina erishish mumkin. Buyuk Mikelandjelo Buonarotti bunday degan edi: «Qalamtasvir –boshqacha qilib aytganda, chizg`ilar san`ati, rangtasvir, haykaltaroshlik, me`morchilikning eng yuqori nuqtasi qalamtasvir barcha fanlarning ildizi va manbaidir». Ushbu so`zlar besh yuz yil oldin aytilganligiga qaramasdan hozir ham qimmatini yo`qotmagan va o`z isbotini topmoqda.

Shuningdek, qancha vaqtdan buyon ma`lum tadqiqot bu-qalamtasvirning barcha tasviriy san`at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san`at turining qaysi birida ijod qilishidan qat`iy nazar, qalamtasvirga asoslanib ish yuritadi. Rassom o`zining kuzatishlari, katta asarlarning kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalam bilan dastlabki chizg`ilarni ifodalay oladi. San`at asarlarini yaratish ishlarida ushbu bajarilgan chizg`ilar rassomga yordamchi manba bo`lib xizmat qilishi ma`lum. Rassom qanday kartina yaratishga harakat qilmasin, mazkur asarning yaratilishi qalam bilan ishlashdan boshlanadi. Shu ishlarni bajarganidan so`nggina maqsad qilingan asarlar ranglarga burkanib, jozibasi va jilvakorligi bilan tomoshabinlarga estetik rohatlanish baxsh etishga qodir bo`la oladi. Bunday jarayonni boshqacha qilib aytganimizda, qalamtasvirsiz hech bir rassom – u etuk, iste`dodli va taniqli bo`lishi yosh tasviriy san`at olamiga dastlabki qadam ranjida qilayotgan yosh rassom bo`lishi mumkin – o`z asarlarini oxirigacha ishlov berilgan, oldiga qo`ygan maqsadiga muvofiq etuk holga keltira olmaydi. Shu bilan bir qatorda, qalamtasvir boshqa san`at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san`at asar ham bo`lishi mumkin. Bunday tasviriy san`at namoyondalari buyuk rassomlar tarafidan yaratilgan bo`lib, ular rangtasvirda ishlangan qator olamga mashhur bo`lgan rang-rang asarlar bilan bir qatorda jahonning har xil muzeylari va tasviriy san`at ko`rgazmalaridan joy olgan, ko`plari juda mashhur bo`lib, manna

necha asrlar, yillar davomida san`at asarlari sevuvchilar, san`atshunoslar, rassomlar, olimlar, tarixchilar va boshqalarning diqqat e`tiborida bo`lib, ko`pgina kitoblar, al`bom, otkritkalar ko`rinishida chop etilgan, ular haqida ko`plab maqolalar yozilgan, ilmiy ishlar, izlanishlar, tadqiqotlar, ularni o`rganish, tahlil qilish sistemalari ishlab chiqilgan, fil`mlar suratga olingan. Ularning orasida eng mashhurlaridan, misol uchun, Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Rubens, L.Ivanov, M.Vrubal`, Madil`yani, V.Van Gog, Pikasso, P.Sokolov, A.Matiss va boshqalarning dunyoga mashhur bo`lishi ularning etuk asarlar darajasida bajarilganligidan darak beradi. Qalamtasvir mashg`ulotlaridagi asosiy talablaridan – tabiatdagi turli narsalarni ko`rib, ularni kuzatib, har taraflicha to`g`ri tasvirlay olish, borliqni idrok etish, shuningdek qo`llar, ong va sezgi organlarini faollashtirishda zarur omildir. Ayniqsa, narsaning o`ziga qarab rasm chizish mashg`ulotlarida qalam bilan nish olib borish muhim rol` o`ynaydi. Qoralama rasmlar, eskizlar, chizmalar, o`lchamlar, tablitsalar tuzishda qalamtasvir asoslarini yaxshi tushungan va o`zlashtirgan mutaxassislar o`zlarining ijodiy va zaruriy vazifalarini bajarishda katta yutuqlarga ega bo`ladi [6; 35-37].

Tasviriy san`at sohasidagi, xususan o`quv qalamtasvirida qo`llaniladigan qonunlar va qoidalar tabiat qonunlaridan kelib chiqadi. Bu qonunlar tasviriy san`atga etarli ta`sir etib, uning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tasvirlash qonunlari talabada qalamtasvir ishlash bilim va malakalarni shakllantiradi, ijodiy qobiliyatlarini o`stiradi va uni bo`lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Narsalarning o`ziga qarab tasvirlash mashqlari asosiy hisoblanib, u o`quvchilardan yuqorida bayon etilgan qonun va qoidalar asosida ish yuritishni talab qiladi. Shu sababli, talaba o`qishining dastlabki bosqichlaridanoq rasm chizishning asosiy qonunlari bilan to`la qurollangan, hamda o`tmishda yashab ijod qilgan buyuk rassomlarning ijodini va tasvirlash texnikalarni yaxshi o`rganish kerak.



Gipsdan ishlangan er odam boshining qalamtasviri

Tasvirlanayotgan buyum shakli qanchalik murakkab bo`lsa, chizuvchi uni shunchalik ko`p o`rganishi va tahlil qilishi joizdir. Qalamtasvir ishlashda ilmiy yondashish, ayniqsa buyumni chiziqli-konstruktiv tuzilishi va perspektiv holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ta`kidlab o`tish joizki, qalamtasvir ishlashda etuk malakaga erishish ko`p jihatdan narsani o`ziga qarab tasvirlashga bog`liqdir. Narsani o`ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o`tamasdan va o`kuv mashg`ulot jarayonini bilmay turib, badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas.

O`quv qalamtasvirini ilmiy jihatdan tahlil etish natijasida undagi bir necha mustaqil asosiy fanlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

1. Perspektiva – buyumning fazoviy holatini tekislikda to`g`ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan.

2. Plastik anatomiya – inson va hayvonlar tanasining tuzilishi haqidagi fan.

3. Fizika – buyumlarda yorug` va soylarning taqsimlanishi borasidagi fan.

Mazkur fanlarni har bir talaba avvalo umumta'lim maktablarida, so'ngra badiiy oliy o'quv yurtida chuqur o'zlashtirilgan bo'lishi, hamda ularni tasviriyl faorliyatda keng qo'llay olishi zarur.

Oldin aytilganidek, Uyg'onish davri rassomlari o'zlarining mashhur san'at asarlarida sanab o'tilgan fanlarni keng qo'llaganlar. Buyumlarni haqqoniy tasvirlash negizida ushbu aniq fanlarning ahamiyati nihoyatda katta. Biron bir mashhur san'at asari yo'qki, unda perspektiva qonuniyatlariga amal qilinmagan bo'lsin. O'ziga qarab chizilgan rassom qanday holatda – ro'paradan, yonida o'tirib yoki tika turib, bajarganini aniq aytib berish mumkin.

O'tmishda yashab ijod qilgan buyuk rassomlar, shuningdek hozirgi zamonaviy rassomlar perspektivani birinchi o'ringa qo'yadilar. Bizning fazoviy tasavvurimiz perspektiva qonuniga to'la amal qilishni talab qiladi. Narsaning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash uchun, uning qonunlarini to'g'ri bajarishga amal qilishimiz shart. Mashhur tasviriyl san'at ustalarining badiiy ijodlari shuni ko'rsatadiki, tabiatda borliqni haqqoniy tasvirlash uchun, tasviriyl san'atdagi mavjud bo'lgan qonun va qoidalarga rioya qilish juda muhimdir. Leonardo da Vinchi o'zining «Rangtasvir qonuniyatlaril» nomli mashhur asarida jumladan shunday degan edi. «O'quvchi avvalambor perspektiva qonunlarini puxta bilishi lozim, shundan keyin – narsaning o'lchamlarini o'zlashtirishi lozim...».

Amalda bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilar perspektiva qonunlarini o'qish davrining hamma bosqichlarida qo'llay bilishi zarur. Ular nafaqat turli oddiy buyumlarni chizganda, balki tabiatning eng murakkab mahsukli bo'lgan inson qomatining turli holatlardagi ko'rinishini bajarishda ham qo'llashlari lozim. Inson qomatini – uning portreti yoki tanasini tasvirlashda talaba dastlabki kurslarda, geometrik shakllarni chizish davrida olgan bilim va malakalariga asoslanishi muhimdir. Chunki, tabiatdagi barcha narsalarning asosida geometrik shakllar yotadi. Geometrik shakllar-tekisliklar asosida

tasvir bajarish, jumladan inson qomatini chizish va konstruktiv tahlil qilishga uygʻonish davri rangtasvir, qalamtasvir ustasi va xaykaltaroshi Alʼbrext Dyurer asos solgan. Buyuk nemis rassomi Alʼbrext Dyurer tasviriy sanʼatni oʻqitish metodikasi borasida koʻplab ilmiy-amaliy koʻrsatmalar qoldirgan. Faoliyatda u nafaqat his-tuygʻu va kuzatishlarga, balki aniq ilmiy bilimlarga asoslanishi oldinga qoʻyadi. Tasviriy sanʼatda ilmiy asoslar rassomning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Inson aʼzolari va qomatini perspektiva jihatdan toʻgʻri tasvirlashda u oddiy geometriya shakllardan foydalanishni ishlab chiqqan. Bu usul qalamtasvir bajarishda katta malakaga ega rassomdan tortib, badiiy ijodga endigina qadam qoʻyayotgan oʻquvchiga ham katta yordam beradi. Chizuvchi turli shaklli geometrik sirtlar orqali murakkab tuyulgan vazifani ham bajara olishi mumkin. Masalan, inson boshini chizishda uning shaklini katta-katta geometrik boʻlaklar asosida tasavvur etish uni xuddi haykaltarosh singari kesib ishlash ancha mushkul.

Uygʻonish davri rassomlari oʻzlarining ilmiy kuzatishlarini tasviriy amaliyotga keng tadbiiq etganlar. Ular anatomiya, perspektiva, yorugʻ va soya qonunlari borasida koʻplab bilimga ega boʻlganlar va oʻzlarining buyuk asarlarini yaratib, Uygʻonish davri sanʼatini yuqori choʻqqilarga olib chiqqanlar.

Yosh mutaxassis oʻqituvchi –rassomlarni qalamtasvir borasida puxta bilimli boʻlishlarida perspektiva asoslari, qayishuvchanlik (plastik) anatomiyasi kabilar bilan bir qatorda ularga yorugʻ-soya qonunlarini oʻrgatish ham katta ahamiyatga ega. Boʻajak oʻqituvchi buyumlarning qanday materialardan tuzilganligi, bir-biriga tus jihatdan nisbatlarini, fazoviy holatini va hajmini toʻgʻri bajarishlarida yorugʻ-soyalarning ahamiyati muhim.

Tabiatdagi mavjud boʻlgan hamma buyum va narsalar turli hajmga boʻlib boʻlib, biz ularga yorugʻlik tushishi natijasida hosil boʻladigan oʻzgarishlarni orqali qanday hajmga ega ekanligini tasavvur qilamiz.

Ma'lumki, yorug'lik tabiiy (quyosh va oy), yoki sun'iy (elektr va amalga shu'las) bo'ladi. Quyosh nurlari bizgacha nihoyat darajada uzoqdan kelishi sababli, uning yorug'lik nurlari erdagi barcha narsa va buyumlaroga perpendikulyar ravishda tushadi. Shuning uchun yorug'lik nurlari buyumga sochilib tushib, (asosan sferik shakllarda) buyumda yorug' va soyalar tarqoq, nisbatan noaniq ko`rinadi.

Rasm 9.





Tarixiy janr

Narsani o`ziga qarab tasvirlashda sun`iy yorug`lik manbalaridan foydalanish buyumlarning hajmi va shaklini to`g`ri bajarishda muhimdir. Talabalar doimo shuni yodda tutishlari kerakki, oliygohda, xususan qalamtasvir borasida, uning o`ziga xos ilmiy jihatlarini mukammal o`zlashtirishlari ularning bo`lajak pedagogik faoliyatlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Qalamtasvir mashg`uolotlarida buyumlarning hajmini to`g`ri va haqqoniy tasvirlash oddiy qalamlarda amalga oshiriladi. Rangtasvirdan farqli o`laroq bu vazifa ancha mushkul bo`lib, talabalar zimmasiga qalamtasvir borasida ko`plab amaliy mashqlar bajarishni talab etadi. Shuning uchun, talaba turli hajm va shaklga ega buyumlarning yorug` va soyalarini bajarishda tasvirlanayotgan buyumlarning hajmi va shakli asosida ish yuritishni taqozo etadi. Bunda u qalam bilan bir buyumga tushayotgan yorug`, soya, yarim soyalarni engil chiziqlar bilan bir tekisda va chiziqlar tortishda uning dona-dona bajarilishiga e`tibor berishi kerak, buyumlarga yorug`lik qanchalik tik tushsa, ularning tasviri shunchalik yaqqol ko`rinadi. Aksincha, chetdan tushayotgan yorug`lik buyumga umumiy tarzda urinib, bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo`lishiga olib keladi. Yorug`lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin. Bu hol tasvirlanayotgan buyumlardagi yorug` va soyalar majmuasini tashkil etadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yorug`lik.
2. Soya.
3. Yarim soya.
4. Aks.
5. Yaltiroqlik.


**Yorug`lik soya** – buyum yuzasiga tik tushuvchi qu`yosh yoki sun`iy yoritgichlar ta`siridagi nurga aytiladi.

Soya – buyumlarning yoritilgan qismining orqa tomoniga (teskarisiga), yorug`lik nurlari tushmagan eriga aytiladi.

Bunday soyalarni yana **shaxsiy soya** deb ham yuritiladi. Tasvirlar bajarilishida soyalar buyumlarning biri ikkinchisini to`sishi natijasida hosil bo`ladi.

Bunday soyalar buyum tekisligiga (stol, pol, er va hokazo) hamda bajarilayotgan buyumlarning biridan ikkinchiga xam tushishi mumkin. Buyumlarga qiyaroq ravishda tushuvchi yorug`lik ularda yarim soyalarni tashkil etadi. Yarim soyalar asosan yorug`lik va shaxsiy soyalar oralig`idagi qismlardan joylashadi. Shuning uchun soyalar bir xil to`q tusda bo`lmaydi.

Rasm 10.



Qalamtasvirning metodik bosqichlari

Faqatgina soya va yarim soyalar orqaligina, buyumlarning hajmlarini to'g'ri bajarish mumkin. Buyumlarga urilish natijasida qaytib boshqasiga tushuvchi yorug'liklar aks yorug'likni hosil qiladi.

Aks yorug'liklar predmetlarning bir-biridan qanday masofada joylashganiga ko'ra kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin.

Lekin hech qachon aks yorug'lik buyumlarga tik tushuvchi yorug'likka nisbatan kuchli bo'lmaydi.

Buyumga yorug'likning tik tushishi natijasida esa yaltiroqlik hosil bo'ladi. bu holat shisha, chinni, temir, sopol va boshqa yorug'likning qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan ko'pgina buyumlarda kuzatiladi.

Ta'kidlab o'tilganidek o'quv qalamtasvirida yorug' va soyalar qalamda engil chiziqlar (shtrixlar) bilan amalga oshiriladi. Yorug' va yarim soyalarda chiziq kuchlari tasvirlanayotgan buyumning xarakteriga va yorug'lik tushish yo'nalishiga qaray dona-dona, aniq bo'lishi kerak. Bunday bajarilgan tuslar buyumlarning konstruktiv tuzilishini yanada yaqqol ko'rsatib beradi. Aksincha, buyumning soya qismlarida chiziqlar quyuqroq, bir-biriga yaqin (birlashib ketgan) bo'lishi kerak. Qirrani buyumlarda tuslar yorug' va soya uchrashgan (yaqinlashgan) qismda to'qroq bo'ladi.

Tasvirlashga qo'yilgan oldingi qatordagi buyumlar aniq chiziqlar bilan chizilsa, ikkinchi va uchinchi qatordagi buyumlar chizuvchidan uzoqroqda joylashganligi hisobiga umumiy tarzda bajariladi.

Bu o'z navbatida tasvirlanayotgan buyumni haqqoniy (fazoviy perspektiva qonuniga asosan) bajarilishida muhimdir.

Yana shuni ta'kidlash kerak, oddiy qalam bilan buyumni hajmi asosida ishlash, tasvirlanayotgan buyumlarni to'laonli hajmli bajarilishining omilidir. Pala-partish, duch kelgan tomonga chiziqlar tortish qo'yilgan maqsadga erishishga to'sqinlik qiladi.

Buyumlarning hajmlarini bajarishga, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda

chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo'lishiga e'tibor berish kerak va shunday tasvirlash to'g'ri bo'ladi, chizilayotgan qo'yilmaning to'g'ri bajarilishida bu narsa katta ahamiyatga ega. Do'maloq (sfera ko'rinishida) hajmga ega bo'lgan buyumlarni bajarishda, oldin aytilganidek, chiziq tortish uchun ba'zan tus jihatdan to'q bo'lgan buyumni tasvirlashda ham, uning yorug'likni tushishi natijasida tushuvchi soya bilan solishtirish va tushuvchi soyani to'qroq bajarish kerak.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasvirlashning texnik jihatlari bilan bir qatorda uning nazariy tomonlariga ham ko'proq e'tibor berishi lozim.

O'tmishda usta rassomlar tabiatdagi yorug' va soyalarning qonunini izchil kuzatganlar va o'zlarining amaliy ishlarida muvaffaqiyat bilan qo'llay bilganlar. Jumladan, Leonardo da Vinchi shunday deydi: «To'q tusli buyumda hosil bo'luvchi aks yorug'lik doimo ochroq tusedagiga nisbatan aniq va yaqqol ko'rinadi».

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalarga qalamtasvir mashg'ulotlarini o'qitishda ayrim pedagoglar qalamtasvirda mavjud ilmiy asoslarga perspektiva qonunlariga, plastik anatomiyasiga va yorug'-soyalar nazariyasiga etarli e'tibor bermaydilar. Oqibatda talabalar ushbu qonun-qoidalardan bexabar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.

Rasm 11.



Manzara janri

Tasvirlashning asosiy qoidalarini quyidagi ravishda o`rganiladi:

Perspektiva qonuni— tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan qat`iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to`g`ridan yoki chekkadan) chizuvchiga ellips shaklda bajarilib, buyumlarning ekvatoriga (qorniga) yaqinlashganda to`qroq kuchda bo`ladi.

Yorug`soya qonunlari perspektiva, plastik anatomiyadagi qonunlar kabi tasvirlashda aniqlikni talab etadi. Fizik omillarning tadqiqotlari shuni ko`rsatadiki, yorug`lik barcha buyum va narsalarga tushishi natijasida ma`lum hajmlar qonunini tashkil etadi. Oliygo`h va boshqa o`quv o`rinlarida tahsil olayotgan talabalar ushbularni doimo o`z tasviriyl faoliyatida bilishi va qo`llay bilishi lozim:

a) Yorug`lik manbaiga yaqin bo`lgan buyumlarda yorug` va soyalar har doim kuchlidir, aksincha, buyumlar yorug`lik manbaidan uzoqlashgan sari, soya yorug` kuchlari va umumlashib xira bo`lib ko`rinadi. Buyumlarni tasvirda aniq bo`lishi uchun yorug`lik manbaiga yaqin turlarini keskin yorug`, soyalar orqali bajarish, uzoqda joylashgan buyumlarni esa, umumiy tarzda chizish tavsiya etiladi.

b) Buyumningnurni to`shish natijasida u yoki bu tekislikka tushuvchi soya, har doim shu buyumning shaxsiy soyasiga nisbatan kuchliroq bo`ladi. Shuning o`zgarib ko`rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga o`zgarib ko`rinishini kuzatamiz.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. bu holatni shunday ta`riflash mumkin : «Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo`lmasin, perspektiv qonun va qoidalarga bo`ysunadi».

Perspektiv qonunlarni mukammal o`rganib, har qanday buyumning ko`rinar va ko`rinmas tomonlarini to`g`ri tasvirlash mumkin.

Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyatlari shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo`lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikta qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqarib boradi.

O`z navbatida perspektiv qonuni haqqoniy tasvirlash «alifbo» laridan bo`lgan «surat tekisligi», «buyum tekisligi», «ko`rish maydoni», «ko`rish nuqtasi», «ufq chizig`i» kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog`liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo`shliqqa aytiladi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug`lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu buyumning shakli ko`rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o`tadi. Surat tekisligi rassom bilan natura o`rtasidagi vosita bo`lib xizmat qiladi.

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, er va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo`lishi mumkin.

Ko`rish maydoni bu chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko`rish vaqtida qamrab olishidir. Rassom tasvirlanayotgan ob`ektning qancha uzoqlashib borgan sari uning ko`rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob`ektning hamma qismlarini aniq ko`rish va tasvirlashga

imkon yaratadi. Lekin, ob`ektdan juda katta masofada turib ham, unda hamma bo`laklarni va hajmlarni to`laqonli tasvirlash ancha qiyin. Aksincha, tasvirlanayotgan ob`ektga yaqin masofada turib ham, ushbu ob`ektdagi xamma qismlarni ko`z bilan tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to`g`ri tanlay olish, ko`rish maydonini to`g`ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko`p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining uch xissa ko`paytirilganiga teng masofada turib tasvirleydilar. Masalan, inson qomatini to`laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan besh-besh yarim mert masofada turishi kerak.

Ufq chizig`i deb, ko`rimsiz balandligida o`tadigan nurga aytiladi. Buni aniqlash uchun qog`ozni olib uni gorizontal holatda ko`zimiz darajasigacha ko`tarib ufq chizig`ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko`rinishi mumkin.

1. Ufq chizig`idan yuqorida.
2. Ufq chizig`idan pastda.
3. Ko`zimiz nuri balandligida (ufq chizig`i balandligi darajasida).

Ufq chizig`i har doim ko`zimiz nuri balandligidan o`tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko`tariladi, pastga tushsak ufq chizig`i xam pastda kuzatiladi.

Fazoviy perspektiva deb buyumlarning fazo (bo`shlik) ta`sirida o`zgarib (qisqarib) ko`rinishiga aytiladi. Fazo–tiniq muhitdir. Lekin, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta`sirida o`zgarib turishi mumkin. Masalan, havo namligi, atmosfera bosimining o`zgarishi, havodagi chang-to`zonning ta`sirida va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan ob`ektning fazo bo`shlig`ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo`laklarning (yaqqol yoki xira) ko`rinishlariga keskin ta`sir etadi.

Rasm 12.



Naturmort janrida rasm chizishning metodik bosqichlari

Fazo perspektivasi ob`ektning kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) yil fasllari (bahor, yoz, kuz, qish) hamda atmosfera o`zgarishlariga (quyosh yoki bulut) qarab ham o`zgarishi mumkin. Tasvirlanayotgan buyumlarning fazov chuqurligida qanday uzoq yoki yaqinda joylashganiga qarab ham o`zgaradi.

Fazoviy perspektivaning ushbu asosiy qoidalari mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin bo`lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa umumiy bo`lib ko`rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan bo`laklarni yaqqol, uzoqdagilarni esa umumiy tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo`shlig`ida (kengligida) joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo`lsa, xira tusda ko`rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to`g`ri ko`rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq engil, oldingi qatordagi buyumlarni esa yaqqol tasvirlash kerak.

3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo`lib ko`rinadi, uzoqdagilari esa xiraroq bo`lib ko`rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta`sirida siyohrang, havorang va och tusda ko`rinadi. Fazoviy perspektivani

yanada kuchliroq ko`rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko`rinib turgan buyumlarni aniqroq chizg`ilar bilan, uzoqdagilarni esa ochroq tusda tasvirlash mumkin.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o`z tusida (rangida), uzoqdagilari bir xil bo`lib ko`rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilargi esa umumiy tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.

Fazoviy perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun muhimdir. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan qoidalar talabaning qanday vazifa bajarishidan qat`iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo) kuzatilishi mumkin.

Buyumlarni tasvirlashda yorug` va soyalar katta ahamiyatga ega. Naturaga qo`yilgan buyumlarga yorug`lik qanchalik tik tushsa ularning tasviri shunchalik yaqqol ko`rinadi. Aksincha chetdan tushayotgan yorug`lik buyumga umumiy tarzda tushib bajarilayotgan tasvirni xiraroq bo`lishiga olib keladi. Yorug`lik bir buyumdan urilib (sinib) ikkinchisi va uchinchisiga tushishi mumkin.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlash uchun buyum qanday soda yoki murakkab bo`lishidan qat`iy nazar u konstruktiv tuzilishga ega. Konstruktiv so`zi – tuzilish (qurilish) ma`nosini anglatib rassom buyumni tasvirlashda ushbu qonunga amal qilishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chiziqli konstruktiv tuzilishiga e`tibor berish maqsadga muvofiq. Chiziqli konstruktiv qurish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi. Quyidagi antik davrga mansub gipsdan ishlangan ko`za va me`morlik bo`lagida ushbu qonunni amalda ko`rishingiz mumkin.

Buyumning konstruktiv dutilishini uning asosiy qismlaridan, hamda yordamchi chiziqlar o`tkazish yo`li bilan amlaga oshiriladi (ko`za, konus, piramida va hokazo). Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to`g`ri

tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalariga to'liq amal qilishni taqozo etadi. Yuqorida ko'rsatilgan rasmdagi gips ko'zaning hajmini to'g'ri amalga oshirish jarayonida ko'za asosi, ekvatori, bo'g'izi va yuqori qismi aylanalarining uning buyum tekisligidagi holatiga asosan perspektiv qisqarishini ko'ramiz. Demak, chiziqli konstruktiv ko'rish buyumning chekkar qirralarini kontur chiziqlar bilan murakkab tuzilishiga ega (bir necha mayda bo'laklardan iborat). Buyumlarda esa ushbu bo'laklarning engil birlashib yaxlit bir butunlikni tashkil etishdan iboratdir [8; 13-15].

Buyumlar o'z hajmiga ega bo'lishidan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa buyumlarning nisbati deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo'yilma o'z nisbatlaridan tashqari o'zaro ham katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Haqqoniy tasvirlashda buyumlar nisbatini to'g'ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to'g'ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amala oshiriladi. Masalan, gips naqsh rozetkasini olaylik. Rozetkaning balandligini eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoni – enining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil natyurmort yoki boshqa o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

Hajmlar – har bir buyum o'zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo'yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, tsilindr va boshqalar) ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan mashqlarni to'g'ri bajarish kontur (frantsuzcha – KONTOUR, buyum shaklini aks etuvchi chiziq deb yuritiladi). Chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chizig'ining buyum shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoya katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan

tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyumning konturlari to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lsa (kub, piramida, prizma va boshqalar), uning hajmlarini bajarish to'g'ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi.

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash, uning qanday shaklga ega ekanligiga va uni to'g'ri tuslash orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan. Kub hajmini to'g'ri tasvirlashda ko'pincha talabalar xatolikka yo'l qo'yadilar.

Kubning hajmini yorug' soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo'rttirib ko'rsatadilar. Bu esa mutlaqo noto'g'ri. Tabiatda esa qirrali buyumlar yuzalarining bir-biridan tus jihatidan och va to'qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirrali yorug' qismidagi yuzaga yaqinroq erida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

2.2. Pedagoqik rasm chizishning I. II. III.IV metodik bosqichlarini

o'rqatish

Gipsdan ishlangan geometrik jismlarning qalamtasviri oddiylilikdan murakkablikka o'tish usulida amalga oshiriladi. Bunda, tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'qitish programmalarida berilganidek, gipsdan ishlangan geometrik jismlarning rasmini chizish mumkin va bu narsa katta ahamiyat kasb etadi. Bu narsaning zarurligi bo'yicha – bizni qurshab turgan buyumlarning hammasi geometrik shakllarga egadir (shar, kub, prizma, konus, tsilindr va boshqalar).

Shakllarning tuzilishi gipsdan bo'lishining asosiy sababi – bu ularning ko'pchilik hollarda tabiiy emas yoritgichlar bilan yoritilganligi bilan mashqlar bajarish maqsadlarida foydalaniladi.

Yorug`lik – soya ansambli (yorug`, soya, yarim soya, refleks, xususiy va tushuvchi soya, yaltiroqlik) oq rangdagi buyumlarda yaxshi ko`rinadi. Bundan tashqari, oddiy qora qalam yordamida shakllarning tuslaridan nisbatlarini topib ishlash o`quvchini tartib bilan ishlashga o`rgatadi. Eng muximi, programmada ko`rsatilgan murakkab vazifalarni (me`morchilik bo`laklari, gipsdan qilingan naqshlarning elementlarini, insonning portret iva gavdasi) bajarishda oddiy geometrik shakllar, tekisliklar asos bo`lib xizmat qiladi.

Geometrik shakllarning qalamtasvirini bajarish mazkur mashg`ulotlari asosida o`quvchi buyumlarning bo`shliqdagi holatini, yorug`-soya nisbatlari va boshqa nisbatlar haqida to`liq ma`lumotga ega bo`ladi. Gipsdan qilingan geometrik shakllarning rasmini chizish bilan birga parallel ravishda o`quvchi ushbu shakllar nusxasini simdan yasab olishi buyum tekisligida turli holatlarda qo`yib ko`rib, uning yasaliish, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shaklning ko`rinadigan tomonlarini aniq tasavvur qilishi xamda o`x bilimini yanamya chuqurlashtirishi mumkin. Bu usul geometrik shakllarni tasvirlashda o`kuvchiga engillik tug`diradi. Sababi bir shakl ikkinchi shaklni to`sib turganda ularning joylashgani joyi, birlashgan joylari (burchaklari) o`zaro nisbatlari aniq ko`rinadi.

O`quv mashg`ulotlari bilan bir qatorda, uyda bunday geometrik shakllar nusxasini vatman qog`ozdan ishlab chiqib, ularni alohida ikki, uch, to`rt buyum nisbatlarida turli kompozitsiyalar tuzib rasmini chizib mashq qilsa ham bo`ladi. Shakllarni har xil ho`latlarga qo`yish va yoritish orqali rasm chizuvchining bo`shliq va qalam bilan ishlash bobidagi bilimlari ancha rivojlanadi. Bu erda gorizont chizig`ini pastroq joylashtirilgan kubning rasmini chizish borasida metodik uch bosqichda bajariladigan nusxasini ko`rib chiqamiz [8; 26-28].

Mazkur vazifaning birinchi bosqichida shaklning eng chekka tomonlaridagi asosan uni qog`oz sathida ko`rinadigan va ko`rinmaydigan

tomonlarini tasavvur qilgan holda joylashtirish, tomonlarning nisbatlari, balandligi, harakat holatlariga qaray, perspektiv ko`rinishining dastlabki belgilarini aniqlash, shaklning konstruktiv tuzilishini engil chiziqlar bilan tortib, tutash nuqta orqali chekka tomonlarining perspektiv qisqarishini gorizont chizig`iga qarab aniqlashdan iborat.

Rasm chizishni ikkinchi bosqichida kubning tomonlarining nisbatlari va perspektiv ko`rinishlari quyuqroq chiziqda chizish, uning buyum tekisligiga tushuvchi soyasini belgilash kerak bo`ladi.

Uchinchi bosqichda – shakllardagi to`liq soyalar o`rinlarini belgili shtrixlar bilan ishlash (ularga xususiya va tushuvchi soyalar kiradi) buyum uchun qu`yilgan fonni shtrixlar orqali ko`rsatish, uning barcha tomonlaridagi yorug`-soya nisbatlarini belgilab chiqish, tomonlarining tus nisbatlarini aniqlab, refleks, yaltiroq bo`laklarini topib, vazifani bir butun to`liq ravishda bajarish amalga oshiriladi.

Bundan tashqari piramida, shar, prizma, tsilindr shakllarini tasvirlash xam xuddi kub shaklini tasvirlash bosqichlari asosida olib boriladi. Ikki konusning bir-biriga nisbatlik turli holatlarida tuzilgan kompozitsiyani ko`rib chiqamiz. Bu tasviriy san`at mashg`ulotlarining biri – qalamtasvir mashqlarida bajarilgan rasm misolida ko`riladi. Bunda ularning o`zaro nisbatlarini tasvirlashda yordamchi chiziqlar o`tkazib, ish yurgizish metodiga, perspektiva qonunlariga asoslarida, yorug`-soya, shtrixlar orqali tuslash va shunga o`xshash vaziflarni bajarishda ko`rishimiz mumkin bo`ladi.

Shu qatorda, yuqorida ta`kidlab o`tilgan ish jarayoni, ya`ni bosqichma-bosqich tasvirlash asosida kub va tsilindrdan tuzilgan kichik natyurmort misolida ham qarab chiqish mumkin. Ushbu vazifani bajarish va oldin atab o`tilgan vzifalardagi kabi tasvirlashning metodik ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

Mazkur vazifaning bajarilish jarayonida birinchi bosqichda ushbu shakllar qog`oz sathida kompozitsion tarzda joylashtiriladi. Bu jarayon juda

katta ma'suliyatni talab qiladi. Chunki, bu bosqichda hosil qilingan xato butun boshli kompozitsiyaning buzilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda rasm chizuvchi bu bosqichda berilgan kamchiliklar tufayli ishning oxiriga kelib sezilgan xatoni to'g'rilay olmasligi mumkin. Bunda bu vazifa butkul o'chirilib, ishni birinchi bosqichga qaytishdan boshlashiga to'g'ri keladi. Shuning uchun, rasm chizuvchining oldiga qo'yilgan natyurmort yaxshilab o'rganib chiqib, qog'oz sathida to'g'ri joylashtirishning yo'llarini ko'rib chiqish zarur. Kichik ko'lamdagi eskiz – qoralamalar qilish tavsiya qilinadi. Natyurmort qog'ozning markazida joylashtirilishi ko'p jihatdan to'g'ri bo'ladi, ammo ba'zida tasvirning chiroyli ko'rinishini ko'zlagan holda tasvirning umumiy holatdagi ko'rinishini qog'ozning markaziy burchagidan sal yuqoriroq joylashtirilgan holda tasvirlash ham mumkin bo'ladi. Umuman olganda, har bir chizuvchi qog'oz sathida o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan buyum yoki buyumlar to'plamining umumiy ko'rinishdagi holatini tasavvur qila bilishi kerak. Bu tasavvur unga tasvirni joylashtirilib, qog'ozdagi ko'rinishini oldindan ko'ra olish va kompozitsion joylashuvchini to'g'ri amalga oshirishda yordam beradi.

Mazkur vazifani bajarishda qalamni ohista harakatlar bilan, uchini qog'ozga bosmasdan, engiz chiziqlar orqali belgilab, ko'p hollarda nuqtalar bilan belgilab chiqish birinchi bosqichda amalga oshiriladigan ishlarning asosiy talablaridan biri hisoblanadi, chunki bu chiziqlar atsvirdagi ko'rinishlarning asosi bo'lishi bilan bir qatorda bu chiziqlar va nuqtalar yordamchi chiziqlar rolini o'ynaydi va ish jarayonining yakunida o'chirib tashlanadi. Shuning uchun ularni ko'rinar-ko'rinmas chiziqlar bilan tortish maqsadga muvofiqdir [8 ; 37-39].

Vazifaning ikkinchi bosqichi ishning asosiy bo'limi hisoblanadi. Bunda ikki buyum chiziqli konstruktiv qurilishining asosiy chiziqlarini tortish kerak bo'ladi. shuningdek, shakllarning ko'rinadigan va ko'rinmaydigan tomonlarini aniqlash kerak bo'ladi. Ular aniqlanib olingandan so'ng ushbu

buyumlarning buyum tekisligiga tushuvchi soyalari engil harakatlar bilan ozgina miqdorda ko`rsatiladi. Kubning shaklida asosan to`g`ri chiziqlar va ularning tutashgan joylari shakli burchaklarini tashkil qiladi. Kubning qovurg`alari va burchaklarini to`g`ri topish uchun uning barcha burchaklari va qovurg`alarining tasvirlarini tushirish kerak bo`ladi. Keyingi bosqichlarda ko`rinmas tomonlarining tasvirlarini o`chirib tashlash lozim bo`ladi. Tsilindrning shaklida do`maloq ko`rinish bor bo`lib, uni ellips ko`rinishida chizish kerak bo`ladi. Chunki, do`maloq ko`rinishdagi shakllar perspektiv qisqarganida ellipsni tashkil qiladi. Demak, ikkita ellips (tsilindrning ostki–tub tarafi va ustki tarafi) bir-birlari bilan chiziqlar bilan tutashtiriladi. Bu chiziqlarning o`lchami tsilindrning balandligini ko`rsatadi. Tsilindr shaklining tasvirini chizishda uning markazidan vertikal chiziq tortish kerak va tsilindorning chekka chiziqlari shu markaziy chiziqqa o`lchab, nisbatlari aniqlanib chiziladi. Bu bosqichdagi chiziqlarni bajarish ham ohista harakatlar bilan, qalamning uchini juda bosmasdan chizishni talab qiladi. Asosiy talablardan yana biri bu– tasvirlanayotgan buyumlarning o`lchamlari, balandligi va eni, ularning katta-kichikligi va joylashishi, ularning bir-biriga nisbatlari va perspektiv qisqarishini to`g`ri payqash va ko`rsatish hisoblanadi.

Kub va tsilindr tasvirini chizishning uchinchi bosqichida ushbu shakllarning xususiy va buyum tekisligiga tushuvchi soyalar chiziladi. Shakllarning soya–yorug`liklarini tasvirlashda yuqorida ta`kidlanganidek, ularning qovurg`alariga yaqin joylari quyuqroq chiziqlarda chizilishi kerak. Bu ishlarda shtrixlarning to`g`ri qo`yilishi katta ahamiyatga ega. Shtrixlar hozircha engil haraktalarda umumiy ko`rinishda ko`rsatiladi.

Shu yo`sinda vazifaning to`rtinchi bosqichi, ya`ni ishning yakunlovchi bosqichi yuzaga keladi. Bu oxirgi bosqichda soya, yorug`lik, tushuvchi soya, xususiy va reflekslar bajarilib, orqa fon, predmet tekisligiga ishlov beriladi va vazifaga yakunlovchi shtrixlar qo`yiladi. Bu bosqichda berilgan shakllarning hajmlarini ko`rsatish, yorug`lik va soyalarning aniq va

to'liq ko'rinishini tashkil qilish zarur. Buyumlarning hajmlarini ko'rsatishdagi asosiy narsa bu– shakllarning har xilligidagi farqni ko'rsatishdir. Kub shaklida burchaklar va qovurg'alar mavjud, tsilindr esa silliqlik va do'maloq shaklga ega. Ularning shakllarini aniq ko'rsatishning yo'li bu- shtrixlarni buyumning yuzasidagi harakat bo'ylab chizib chiqish, ulardagi eng yorug' va eng qorong'i joylarini ko'rsatish, xususiy soyalar orqali hajmlarini chiqarish va buning uchun mavzud bo'lgan joyida yaltiroqlikni ko'rsatish bo'lib hisoblanadi.


O'tilgan mavzularga asoslanib o'quvchi uyda o'zicha ko'plab nazariy bilimlarni mashq qilib turib rasmlar va qalamtavsvir ishlashi katta ahamiyatga ega. Sababi, o'quv mashg'ulotlarida bajarilgan har bir vazifa asosida parallel tartibda uyda ishlangan mashqlarda o'quvchining bo'shliqda tasavvur qilish, chiziqli konstruktiv tuzilish, yorug'lik – soya nisbatlari, perspektiva qonunlari, nisbatlarni to'g'ri belgilash va ayniqsa rasm chizish tajribasini rivojlantiradi. Buning uchun har xil shakllardagi qutilar, kursilar, ko'za, choynak, piyola, stakan va boshqa uy buyumlari etarli. Bunday buyumlar geometrik shakllarga ega bo'lgan ko'rinishlarga, ya'ni, konus, prizma, tsilindr, shar, piramida va boshqalar atab o'tilgan buyumlarning shakllarining asosiy va umumiy ko'inishlarini tashkil qiladi. Umuman olganda, tabiatda va kundalik turmushimizda foydalanib yurgan buyumlarning shakllarida geometrik ko'rinishlarni o'qiy olamiz. Masalan, choynak shar, stakan (qirrali) – prizma qutilar – kub shaklidagi ko'rinishlarda chizish maqsadga muvofiq.

Girix – milliy naqsh rozetkasining qalamtasviri

Xalqimiz ustalari yaratgan milliy buyumlarda geometrik shakllardagi naqshlarni ko'plab uchratcha bo'ladi. Milliy naqshlar orasidagi geometrik shakllar uchburchak, to'rtburchak va ko'pburchak naqshlar, doira shaklidagi bo'shliqni mayda naqshlar bilan to'ldirib kompoztsiyalar yaratish – geometrik naqshlar majmuasini keltirib chiqardi. Mana shunday bezakdor naqshlardan biri bu- panjara. Panjara gipsdan ishlangane naqsh rozetkasining

tasvirini chizishdagi asosiy maqsad-o`quvchilarni milliy xalq amaliy san`ati bilan yaqindan tanishtirish, yana qurish mohirligini ko`rsatishdan ibort.

Rasm 13.



Girix naqsh rozetkalardan tuzilgan narsalarning qalamtasvirda bajarish yollari

Qo`yilgan vazifani amalga oshirishda rel`efli naqshning rasmini chizish maqsadga muvofiq. Naqshning konstruktiv tuzilishi hamda uning soya-yorug`lik shtrixlarini berish o`quvchidan diqqat-e`tiborni talab qiladi. Naqsh rasm chiziuvchilarga solishtirish balandligida, och kulrang fonda joylashtiriladi. O`quvchilar naqshni yon tomondan kuzatib, ba`zi perspetiv qisqarishning rasmini chizish maqsadg`a muvofiq.

Naqsh rozetkasining umumiy shaklini ko`rsatish borasida uning asosiy nisbatlari – bo`yi va uzunligiga va yana eni va chuqurliliga nisbatan solishtirishni to`g`ri topish katta ahamiyatga ega.

Ustin bo`limining shaklini tasvirlashda o`quvchining shakllarning birdek emas ekanligini ko`radi. Bunda ularning har bir bo`lakni diqqat bilan talqin qilishga yo`naltiradi.

Haqqoniy tasvirlashning asosiy qoidalaridan biri- panjara geometrik naqshni talqin qilish hisoblanadi. Bunda uning xarakterli bo`laklari aniqlanib bosqichma-bosqich tasvirlanadi. Rozetkaning taraflarining nisbatiga qarab, qog`oz tikka yoki yotiq holda qo`yilib tasvirlanadi.

Naqshning nusxasining vertikalga nisbatan bo`lishi, taraflardan birinchisi ikkinchisiga nisbati, perspektiv qisqarishi va gorizont chizig`ining

holati chiziqli konstruktiv usulda bajariladi. So`ng tasvirlangan ikki bo`limi zanjir elementi aniqlanadi. Buning uchun uni teng ikkiga bo`lib, zanjirning gipst taxtasidagi eng yuqorgi va pastki bo`lagi hamda chetki nuqtalari belgilanadi.

Rozetkaning taraflari, burchak graduslari bir-biriga teng va simmetrik ekanligi ma`lum. Shuning uchun uni teng ikkiga bo`lib o`tuvchi nuqtalardan gorizontal va vertikal to`g`ri chiziqlar o`tkaziladi.

O`tkazilgan ikki vertikal chiziqlar bir-biriga parallel bo`lsa, gorizontal chiziq gips taxtasining yuqori va gorizontal qovurg`alariga parallel bo`lmagan holda o`tadi. Sababi, ikki to`g`ri chiziq o`quvchi qaysi nuqtadan turib tasvirlayotganiga qarab perspektiv qisqarib boradi va ma`lum bir oraliqda borib, bir nuqtada uchrashadi (kesishadi). So`ng panjaraning qalinliklari belgilanadi va ular to`g`ri chiziqlar orqali birlashtiradi. Bu vazifaning ikkinchi bosqichi hisoblanadi [8; 45-47].

Keyingi bosqichlarda panjara taraflarining burchaklari, tekisliklarning bir-biriga nisbatlari topiladi. So`ng rozetka bo`laklaridagi yorug`lik va soya, yarim soyalar yorug`lik manbasining tushishiga qarab qanday o`zgarishi aniqlanadi.

Soya boshlang`ich bosqichda engil shtrixlar bilan bajariladi. Naqsh bo`laklarining yorug` va soyalar hech qachon alohida-alohida ishlash yaramaydi. Har bir bo`lakni bir-biriga solishtirgan holda tengma-teng tasvirlash kerak. Bu amalning to`g`ri bajarilishi ish olib borish borasida biri ikkinchisini to`liqtirib boradi.

Gipsdan ishlangan naqshni to`g`ri ishlashda o`quvchilar quyidagi qonun-qoidalariga amal qilish zarur.

1. Naqsh sirtiga tasvirlanayotgan naturani tashqi qovurg`alarini belgilangan holda, kompozitsion to`g`ri joylashtirish.

2. Naturadagi shakllarning asosiy tayan nuqtalarini belgilab, ulardan birining ikkinchisiga nisbatini perspektiv qonun-qoidalar asosida tasvirlash.

3. Formalarni chiziqli konstruktivlik ravishda qurish, naturadagi asosiy bo`laklarni belgilash.

4. Tasvirlanayotgan shakllarning xususiya soylarini belgilash va har bir bo`laklariga ishlov berish.

5. Naturadagi barcha buyumlarni tus tomonidan yanav bir marta ko`rib, qo`yilmadagi shakllarning xarakterini aniqlash va soya, yarim soya, yorug`, reflekslarini aniqlash. Buyumni bir butunlikka bo`ysundirish va vazifaga yakun yasash.

Ushbu metodik izchillikka bo`ysungan holda rasmni to`g`ri bajargan o`quvchi o`zining oldiga qo`yilgan maqsadiga erisha oladi. Keyingi vazifalarni bajarishda mazkur mashqlar katta yordam beradi.

Bunday mashqlarni bajarishda oddiylikdan murakkablikka bosqichma-bosqich o`tish, shtrixlarni buyumning yuzasidagi yo`nalishlar bo`ylab yotqiziyu chizish, yorug`lik soylarni, shuningdek reflekslarni to`g`ri ko`rsatish katta ahamiyatga ega.





XULOSA

O`quvchilarga tasvir san`at darslarining to`g`ri yo`liga qo`yilishi har bir o`qituvchi uchun umumiy ta`limni, estetik tarbiyani amalga oshirish hamda o`quvchilarni turmushga va mehnatga tayyorlashda katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Rasmi chizdiriladigan narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabi xarakterli xususiyatlarini ko`ra bilish va tushunish o`quvchilarda tevarakatrofdan estetik zavq olish undan ta`sirlanish xususiyatlarini hosil qilishi bilan birga, ularning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o`stiradi, badiiy didni tarbiyalaydi.

O`quvchilar qandaydir biron bir narsaning rasmini yoki biror manzaraning bir qismi rasmini chizar ekanlar, ularning o`ziga xos xususiyatlarini qalam orqali tasvirlaydi.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish mashg`ulotlarida o`qituvchi o`quvchilarni rasm chizishning asoslari bilan yaqindan tanishtiradi. Realistik tasvirning elementar asoslarini o`rgatish asosan quyidagilar bilan bog`liq.

1.Narsalarning shakli, tuzilishi, o`ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularning bir-biriga o`xshash hamda bir-biridan farq qiluvchi tomonlarini ko`ra bilish va tasvirlay olish.

2. Narsalarni narsalar turini hisobga olgan ho`lda, perspektiv jihatdan to`g`ri tasvirlay olish.

3. Qalam bilan ishlash malakalarini hosil qilish va o`stirish.

Tasviriy to`g`ri va ta`sirchan qilib ishlash, uning ayrim detallarini qiziqarli va nafis qiloib berish, narsalarning fazoviy joylashuvchi va yorug`soyani aniq berish kabilar o`qituvchi tomonidan o`quvchilarga xar bir darsda muntazam ravishda tushuntirib borilishi lozim.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizishda solishtirish metodi birdan-bir to`g`ri metod hisoblanadi. O`quvchilar biror narsani tasvirlar ekanlar, uni diqqat bilan kuzatib, ikkinchi bir narsa bilan solishtiradilar, ularning umumiy

xususiyatlarini ko`radilar va bir-biridan farq qiluvchi tomonlari haqida fikr yuritadilar. Bunday solishtirish o`quvchiga chizilayotgan o`xshatishda yordam beradi. O`quvchilarni narsaning o`ziga diqqat bilan kuzatishga o`rgatish o`qitishning barcha bosqichlarida katta rol o`ynaydi. O`quvchilar narsaning o`ziga qarab, uning shakli, nisbatlari tuzilishi va rangi haqida to`g`ri tushunchaga ega bo`ladilar [6; 19-20].

O`quvchilarda kuzatuvchanlik o`stirilib, ko`rgan narsalarni analiz qila olishi va ular haqida ma`lum darajada malaka hosil qilinganidan so`nggiga hajmli rasm chizishni muvaffaqit bilan olish borish mumkin. O`quvchilar rasm chizish sohasida ma`lum bilim va malakaga ega bo`lganlaridan so`ng yorug`-soya qoidalarini nazariy jihatdan tushuntirish zarur. Shundagina, o`quvchilar yorug`lik, soya, yarim soya, blik, aks ta`sir (refleks) kabi hodisalar ustida ishlab bu hodisalarni o`qituvchi yordamida kuzatadilar va o`zlashtiradilar. Vazifani to`g`ri bajarish, yuqorida aytilganlar bilan bir qatorda, yorug`-soya hodisasini qanday izchillikda berishga ham bog`liqdir. Predmetni eng yorug` qismidan boshlab to eng soya qismigacha tasvirlash ma`lum bosqichlarni o`tadi. Bunda asosiy e`tibor yorug`-soya va yarim soyaga qaratilgan bo`lishi kerak.

Perspektiva hodisasini o`rganish narsalar turining rasmini chizdirishda o`rgatiladi. Bunda avval ikkita, keyin uchta va undan ortiq narsalar to`p holda chizdiriladi. Geometrik shakllardan tuzilgan narsalar to`pining rasmini chizishda o`quvchilar shaxsiy va tushuvchi soyalar shakli va joylashuvi hamda bu soyalarning o`zaro bog`liqligini tasvirlab berishlari kerak. Shuningdek, tasvirning aniq va ravshan bo`lishiga erishish uchun perspektiva qonunlari singari asosiy qonunlarni bilmoq kerak. Rasmda yorug`-soyani bera bilish malakalarini narsalar to`pining rasmini chizishda muvaffaqiyat bilan amalga oshirish mumkin.

O`quvchilarga qo`yiladigan vazifalar ichida rasmni perspektiv jihatdan to`g`ri tasvirlash asosiy o`rinni egallaydi. Shu bilan birga, yorug`-

soya masalasiga ham ko`proq ahamiyat beriladi. Bulardan tashqari, maxsus vazifalar berish ham ma`qul keladi, ularni bajarish o`quvchilarning fazoviy narsalarning fazoviy o`rni haqidagi tushunchasini o`stirishga yordam beradi. Ba`zi geometrik shakllarning to`rtidan bir bo`lagini olib, ularni narsalar to`pidan tasvirlash shunday murakkab topshiriqlar qatoriga kiradi. Rasm chizishning bu bo`limida o`qituvchining maqsadi o`quvchilarning ko`rish qobiliyatini va tafakkurini o`stirish hamda narsalar shaklini bera bilishga qaratilgan bo`lishi kerak.

Yakka narsalar rasmini chizishda o`quvchilar faqat ularning shakli va o`lchov nisbatlariga ahamiyat bergan bo`lsalar, narsalar to`pining rasmini chizishda narsalar orasidagi masofa o`lchovlari, ularning shakli va fazoda joylashuviga ahamiyat beradilar.

Shunday qilib, avvalgi vazifalarga yangi, ya`ni narsalarning fazoda joylashuvini tasvirlay olish vazifasi qo`shiladi. Narsalar to`pining rasmini chizishda quyidagilarga :

- a) rasmni qog`ozda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirish ;
- b) narsalarning fazoviy joylashuvini to`g`ri tasvirlash va uni tushunish;
- v) narsalar o`lchovlari nisbatlarini rasmda to`g`ri bera bilish ;
- g) narsalar shaklini tasvirlash olish ;
- d) narsalarning rangini va yorug`-soylarini to`g`ri tasvirlashga xarakat qilish kerak.

Bu vazifalar oldin ta`kidlanganidek, oddiylıkdan murakkablikka borish qoidasiga asoslanib va o`qitishning izchillik printsipiga qat`iy rioya qilingan holda bajariladi. Bundan tashqari, narsalarning fazoda joylashuvini tasvirlashning turli usulini tushuntirish lozim.

O`quvchilarni narsaning o`ziagi yorug`likni darajasini (yorug`, soya, yarim soyani) ko`rishga o`rgatib borish o`qituvchilarning asosiy vazifasidir. Soyani tasvirlashda o`qituvchilar rasmning bir tomonini yorug`, ikkinchi tomonini soya qilib bo`yab qo`ya qolmasdan, balki uni tushungan holda, ongli

ravishda tasvirlashlari kerak bo`ladi. Narsalar tanasida yorug`lanish darajasini o`quvchilarga yanada yaxshiroq tushuntirish maqsadida ularga refleks haqida tushuncha beriladi. Refleks hodisasini to`liq tushuntirish uchun oq qog`oz olinib, uni narsaning soya tomoniga tutiladi. Natijada narsaning soyasidagi refleks qog`oz ta`sirida yorishadi. Bu ish uch-to`rt marta takrorlansa o`quvchilar refleks haqida aniq tasavvurga ega bo`ladilar. Refleks hodisasi har bir narsaning soya qismida bo`lib, oddiy ko`z bilan aniq ko`rinmasligini o`quvchilarga qayd etib o`tishi zarur. Refleks ho`disasi narsani o`rab olgan boshqa narsalarga bog`liq bo`lib, u asosan stol, devor, yoxud stol ustida yotgan boshqa narsaning ta`siridan hosil bo`ladi.

Yorug`, soya, yarim soya, refleks va boshqalar haqida ma`lumot berilganda, ularning narsalar shaklining yaqqol ko`rinishida muhim rol o`ynashini alohida ta`kidlash zarur bo`ladi. Yorug`-soyalarni o`quvchilarga yaxshi tushuntirish uchun yorug`-soya berish texnikasini ko`rsatmali ravishda katta o`lchovdagi qog`ozda chizib ko`rsatish hamda soya berishda yorug`-soyalar o`rtasidagi nisbatlarni esda saqlash kerakligini uqtirib o`tish lozim.

Narsalar to`pining rasmini chizishda ham yakka narsalar rasmini chizishdagidek, har bir yangi temani o`tishda darsning vazifa va maqsadlari murakkablashib boradi. Keyinchalik, bora-bora tekislikda narsalarning rasmini hajmli qilib chizish asosiy vazifa bo`lib qoladi. Yorug`-soyani tasvirlashni o`quvchilar ongiga to`la etkazish oson emas. Buning uchun o`qituvchi darsga doimo tayyorlanib kelishi va temani o`quvchilarga tushunarli bayon qilib berishi lozim. Hajmni tasvirlash vazifa qilib berilgan darslarda o`quvchilar chiziqlar yordamida narsalar shaklini chizib olganlaridan so`ng, yorug`-soyani berishga kelganda, rasmning soya qismini qoraytirib, uni o`zlaricha soya deb qabul qiladilar. O`quvchilarning bunday xatolarini o`qituvchi yorug`-soyani analiz qilib ko`rsatish vositasida bartaraf etadi va ularning ko`rish hamda tasvirlay olish qobiliyatini to`g`ri yo`lga solib boradi. Bu esa o`quvchilarning bilim hamda malakalarining oshib borishida

muhim rol` o`ynaydi. Kuzatuvchanligi hamda rasm chizish malakalarining oshib borishi natijasida o`quvchilar narsalar formasini ko`rish va yorug`-soyani ongli ravishda tushungan holda tasvirlay olishni o`rganib oladilar. Yorug` va soyalarni berishda, eng avvalo, narsaning joyini qoldirib, yarim-soya tasvirlanadi, so`ngra uning soya erlari kerakligicha qoraytiriladi. O`qituvchi mavjud metodlar orqali o`quvchilarga narsalarga noto`g`ri yorug`-soya bermaslikni, yax`ni rasmning bir tomonini yorug`, ikkinchi tomonini, qora qilib tasvirlamaslikni eslatib o`tishi, konkret ko`rsatma berishi zarur. Narsalar rasmini chizishda yorug`-soya berishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadigan har bir mashg`ulotni ko`rsatmali asosda olib borish yaxshi natijalar beradi [6; 37-38].

Xulosa qilib aytganda, narsaning o`ziga qarab rasm ishlash, shu qatorda geometrik shakllardagi jismlarning rasmlarining qalamtasvirini chizishda ushbu bitiruv malakaviy ishida qayd etilgan ma`lumotlar va ko`rsatib o`tilgan misollar asosida o`quvchilarga beriladigan vazifalarning samaradorligi ancha oshib borishini ta`minlashi mumkinligini ta`kidlab borish maqsadga muvofiq. Tabiatda va turmushda mavjud bo`lgan barcha buyum va narsalarning rasmini chizishda geometrik shakllarni ko`rish mumkin. Ularning hajmlari asosan shar, kub, konus, prizma, piramida, ellips kabi geometrik shakllardan iboratdir. Shuning uchun, gipsdan ishlangan geometrik shakllardagi ularni yakka ko`rinishda va bir necha shakldagi jismlardan tuzilgan kichik natyurmort tuzish asosida qalamtasvirining ustida ish olib borish ko`plab vazifalarni bajarishda asosiy malakalardan hisoblanadi. Bunda geometrik jismlarning xarakterli xususiyatlarini, perspektiv qisqarishlari, yorug`-soya masalalari, proportsiya va narsaning chiziqli konstruktiv rasmini chizish o`xshagan bilim va malakalar oshirib boriladi. Bu esa keyingi bosqichlarda vazifa tarzida beriladigan buyum va narsalar, ulardan tuzilgan natyurmortlar ishlashda katta yordam beradi. Bu tartibda ish olib borish rasm chizishning akademik yondashish metodlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin».T., 1994
2. I.A. Karimov. «Wzbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari ».-T.: «Wzbekiston», 1995, 9-b.
- 3.I.A.Karimov. «Bunyodkorlik yo`lidan». II-tom, T., 1996
- 4.I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». Toshkent. 1999
- 5.I.A.Karimov. «Yuqori ma`naviyat-engilmas kuch».Toshkent. 2008
- 6.B.Boymetov. Qalamtasvir o`qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar.T., 1995
- 7.B.Boymetov. Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o`quv qo`llanma.T., 1997
- 8.B.Boymetov. Portret qalamtasviri. O`quv qo`llanma.T., 2001
- 9.N.N.Rostovtsev. Akademicshiy risunok. M., 1984
- 10.Avangard, ostanovlenniy na begu. Al`bom. Leningrad, 1989
- 11.Gosudarstvenniy muzey iskusstv Karakalpakskoy ASSR. M., 1976
- 12.A.Krimov.Izbrannie proizvedeniya.M., 1984
- 13.Valentin Serov. Al`bom. M., 1974
- 14.T.Serebryakova. Izbrannie proizvedeniya. Al`bom.M., 1978
- 15.N.Kashina, R.Taktash. Jizn` i tvorchestvo.T., 1972
- 16.Istoriya iskusstv evropeyskix stran.M., 1981
- 17.Impressionizm. Al`bom. L., 1980
- 18.Postimpressionizm. Al`bom.M., 1979
- 19.Aleft`eva I.Gyu Pis`ma i vospominaniya xudojnika.J. «Yuniy xudojnik». № 1983
- 17.Tojiev V. Qalamtasvir asoslarini o`rganish. T.1994
18. Tojiev B. Qalamda manzara chizish (oqiw qollanba). T., 2000
19. Turutina S.M. Teberik insan edi. // Sa`niyat//. № 1.2004

20. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
21. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir (2-qism). 2003
22. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir. 2005
23. Tolipov, N. Abdirasilov S. Oripova N. Rangtasvir . 2006
24. Utegenova U. Dragotsennost v krepkoy oprave. // Vesti Karakalpakstana //. 18-dekbar` 2012
25. Hasanov R. Narsaning o`ziga qarab rasm chizish. T., 1963
26. Hasanov R. Yosh avlodni san`at vositasida estetik ruhda tarbiyalash. T., 1982
27. Hasanov R. Tema asosida rasm chizish jarayonida estetik tarbiya. T., 1980
28. www.pedagog.uz
29. www.nbgf.intal.uz
30. www.ziyonet.uz
32. www.edu.uz